

## Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’til paytida matematika fani bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish asosida ta’limda uzluksizlikni taminlash va uning ahamiyati

**Ungarov Baxtiyor Hayitovich., Amirov Ikrom Nurali o‘g‘li** - Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchilari.

**Normonov Basriddin Sirojiddin o‘g‘li** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti

**Email:** amirovikrom191093@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, tamoyillari va shakllari keltirib o‘tilgan. Ta’lim mazmunini belgilash muammosiga doir qarashlar asoslab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** uzviylik, uzluksizlik, masala, yechim, teskari masala, tadqiqot, matematika.

### Annotation.

Priority principles, directions and forms of activity of the education system are given. Opinions on the problem of defining the content of education are based.

**Keywords:** principles, directions, forms, education management, innovative approach.

Ta’lim sohasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishi hisoblanadi. “Ta’limda uzviylik ikki xil turda qo‘llaniladi. Birinchidan, ta’lim turlari (bo‘g‘inlari) orasidagi uzviylik. Bunda ta’limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog‘langan holda uning keyingi ta’lim turlarida davom etadi. Ikkinchidan, o‘quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Uzviylik tushunchasi uzluksiz ta’lim tizimining har bir turida o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablarni xarakterlaydi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida maktabgacha ta’limdan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta’minlashga alohida ahamiyat berilgan. Ta’lim dasturlarini mazmunan uzluksiz va uzviylik

tamoyili asosida tayyorlashga erishsak, mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladigan pedagogik tizimni joriy eta olamiz.

Bundan tashqari, biz uzluksiz ta'lim tizimimizda har qanday texnologiyani emas, balki metodologik-g'oyaviy jihatdan milliy istiqloq mafkurasiga mos keluvchi texnologiyalarni qo'llashimiz lozim. Bu ta'lim tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishning muhim nazariy metodologik talabi hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi sifatini ta'minlashda bir qancha muammoli masalalar mavjudligini ko'rish mumkin.

Jumladan:

- Nima uchun maktabning birinchi sinfiga borgan bola darslarga moslashish va fan dasturida berilgan mavzularni o'zlashtirishda qiynaladi?
- Nega boshlang'ich ta'limda yaxshi baholarga o'qigan bola yuqori sinflarda o'qishi pasayib ketadi?
- Nima uchun o'quvchi kasb tanlashda mustaqil tanlovni amalga oshira olmaydi?
- Nega oliy ta'limni tugatganlar kasbiy faoliyatga tezkor kirishib keta olmaydi?

Bu kabi savollarning javobi sifatida uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikning ta'minlanmaganligini ko'rsatish mumkin.

Vazifalarni amalga oshirishda jahon ta'lim tizimida ta'lim turlariaro uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan xorijiy ta'lim tashkilotlarining ham tajribalari o'rganilmoqda. Jumladan, Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI) loyihasida (Britaniya Kolumbiyasi), ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomilashtirish bo'yicha tadqiqotlar Purdue Universityda (AQSh) va JCM International Management Engineering Instituteda (Xitoy) hamda interaktiv ta'limni amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD) kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan yozgi ta'til kunlarida maktab o'quvchilarini dam oldirish va sog'lomlashtirishga tayyorgarlik ko'rish hamda ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda har yili ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

E'tiboringizni ushbu statistik ma'lumotga qaratmoqchimiz. Bir kalendar yili 12 oy yoki 365 kundan iborat.

Boshlang'ich sinflarda yozgi ta'til har yili 25 maydan boshlanadi va 99 kun davom etadi. Shuningdek dam olish kunlari, chorak yakunlari va bayramlar munosabati bilan qo'shimcha dam olish kunlari va shanba yakshanba kunlari bilan

birgalikda bir yilda taxminan 171 kun (yarim yilga yaqin) dam olish kunlari hisoblanadi.

Ushbu dam olish kunlari aksariyat o‘quvchilarning (ayrim o‘qituvchilarning ham) fan bilan mashg‘ul bo‘lishlari ehtimoli kam. Ota onalari yoki oilaning katta a‘zolari o‘qishni jiddiy nazorat qiladigan o‘quvchilar bundan mustasno. Psixologlarning ta’kidlashicha uch oy mobaynida o‘qish bilan umuman shug‘ullanmagan o‘quvchi (o‘qituvchi ham) o‘zlashtirgan bilimlarining ko‘pchilik qismini unutar ekan. Shu o‘rinda haqli savol paydo bo‘ladi. Agar o‘quvchi oldindan bilim o‘zlashtirgan bo‘lsa ko‘pchilik qismini unutadi va o‘zlashtirgan bilimlarining ma’lum qismi unda qoladi. Agar oldindan bolaning bilimlari sayoz bo‘lsa unda umuman bilim qolmaydi degan xulosani qilish mumkin. Bu xulosa ta’limga masu‘l bo‘lgan barchani ayniqsa pedagoglarni tashvishlantiradi albatta. Ushbu muammoli vaziyatni ijobiy hal etish maqsadida bazi tavsiyalarni ta’kidlab o‘tish mumkin.

Bizga ma’lumki matematika fani doimiy uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan fanlar toifasiga kiradi. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish jarayonida uzluksizlikni ta’minlash uchun darslikda berilgan barcha masalalarga nisbatan qo‘shimcha masalalar, jumladan berilgan masalalarga teskari masalalar tuzish, berilgan masalalarga nisbatan qo‘shimcha savolli masalalar tuzish, turli xil mantiqiy masalalar tuzish va ularni dam olish kunlari yoki ta’til paytlarida yechishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ushbu jarayonni o‘quv yili boshlanishida o‘quvchilarga yuqorida tavsiya etilganlar asosida tayyorlangan qo‘shimcha materiallarni berish bilan tashkil etish va yil davomida o‘quvchilarning fan bilan shug‘ullanishlarini ta’minlash mumkin.

O‘quvchilar tavsiya etilgan qo‘shimcha masalalarni yechishga qiynalmaydilar chunki asosiy masala dars jarayonida o‘qituvchi rahbarligida bajarilgan bo‘lib tavsiya etilayotgan masalalar esa ushbu masalaga nisbatan tuzilgan qo‘shimcha masalalardir.

Ushbu masalalar o‘quvchilarning dam olish kunlari va ta’til paytida shug‘ulanishlari uchun tavsiya etilishi mumkin va bu o‘tilganlarni takrorlashga va matematik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Natijaning ijobiyligini ta’minlash uchun quyidagilar nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi:

- O‘quv yili boshida darslikga oid qo‘shimcha materiallarning qog‘oz yoki elektron varianti bilan o‘quvchilarni ta’minlash;





- Yil davomida o‘quvchilarni doimiy nazorat qilib borish, zaruriyat bo‘lsa metodik yordam berish;
- Kelgusi o‘quv yili boshlanishi bilan o‘quvchilarning bajargan ishlarini nazorat qilish va baholash;
- Rag‘batlantirish yoki qo‘shimcha topshiriqlar berish va b.q.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazrlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori // <https://lex.uz/docs3153714> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjarlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. 3-sinf matematika darsligi “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi” bosh tahririyati tomonidan 2019 yilda nashrga tavsiya etilgan.
3. Komil Zaripov “Yangi pedagogik va information texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari” “Pedagogik mahorat” jurnali 2009 yil 1-son.
4. M.Jumayev, Z.Artikboyeva, M.Sultonov, Qurbanov F.B. “Matematika o‘qitish metodikasi” /. Darslik «Innovatsiya-Ziyo» 2022y. 188b.
5. Jumayev M.E. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. T.: “Innovatsion-Ziyo”, 2021-yil.
6. Jumaev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Innovatsion-Ziyo” 2022-yil.
7. N.U.Bikbayeva., E.Yangabayeva “Matematika” /. Darslik. T.: «O‘qituvchi» Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi 2010-yil.
8. A.Quchqarov., Sh.Sariqova, P.Usmonova “Matematika” /. Darslik. T.: «Yangiyo‘l poligraph service» 2009-yil.
9. N.U.Bikbayeva., E.Yangabayeva., K.M.Girfanova “Matematika” /. Darslik. T.: «O‘qituvchi» Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi 2014-yil.
10. B.Q.Haydarov “Matematika” /. Darslik. T.: «Yangiyo‘l poligraph service» 2015-yil.

